

FRIDERIK SHOPEN HAYOT YO'LI VA FORTEPIANODA ETYUDLARINING O'RNI

Olimjonova Mubina

Qo'qon davlat universiteti san'at va sport fakulteti cholg'u ijrochiligi fortepiano va organ yo'nalishi 1-bosqich talabasi ilmiy – nazariy maqolasi.

Sobirjonov Akbarmirzo

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Friderik Shopen hayoti va fortepiano etyudlarining o'rni Ushbu ishda polshalik buyuk bastakor va pianinochi Friderik Shopen hayot yo'li hamda uning fortepiano san'atida burilish yasagan etyudlari tahlil qilinadi. Shopenning musiqiy merosi, ayniqsa, uning Op. 10 va Op. 25 turkumlari orqali janrning texnik mashq darajasidan yuksak badiiy asar darajasiga ko'tarilishi tadqiq etiladi.*

Kalit so'z: *Romantizm, fortepiano etyud, badiiylik va texnika, virtuoslik.*

XIX asrning 30—40-yillarida jahon musiqasi yangi badiiy hodisalar bilan boyidi. Musiqa san'ati tarixida Shopen, List va Glinka ijodlari ila yangi sahifalar ochildi. Ular o'z xalqlari tomonidan to'plangan ulkan qadriyatlar mohiyatini oydinlashtirgan holda milliy musiqa maktablarining asoschilari bo'lishdi. Shu jumladan, Friderik Shopen musiqasi polyak xalqi ruhining ifodasi bo'ldi.

Buyuk kompozitor o'z hayotining katta qismini vatanidan tashqarida o'tkazgan bo'lishiga qaramasdan, butun jahon ahli ko'z o'ngida Shopen san'ati uchun shunday o'ziga xoslik mavjud ediki, bular uni barcha boshqa zamondoshlaridan ajratib turar edi. Uning ijodidagi originallik zamondoshlari tomonidan birdaniga his etilgan polyak milliy manbalariga borib taqaladi.

Shopen ijodida Vatan mavzusi bosh mavqeni tutadi. Uning butun ijodida jonajon Polsha timsoli «qizil ip» bo'lib o'tadi. Bular

uning buyuk o'tmishi, milliy adabiyot obrazlari, zamonaviy polyak maishiy hayoti, milliy raqs va qo'shiqlar ohangi edi.

Friderik Shopen 1810-yil 1-martda Polsha poytaxti Varshavadan unchalik uzoq bo'lmagan Jelyazova Volya degan joyda

dunyoga keladi. Kichkina Friderik musiqa qurshovida ulg'ayadi. Uning otasi skripka

va fleyta chalar, onasi yaxshigina kuylar hamda biroz fortepiano chalardi. Friderik besh yoshga yetganidayoq katta opasi Ludvika rahbarligida o'rgangan murakkab bo'lmagan pyesalarni ijro eta olgan. Kichkina pianinochining birinchi chiqishi Varshavada, yetti yoshga to'lganida sodir bo'ladi. Konsert juda muvaffaqiyatli o'tadi va tez orada Shopenning nomini butun Varshava biladi. Xuddi shu davrda uning dastlabki asarlaridan biri fortepiano uchun sol minor polonezi nashr etiladi. 1829-yilda Shopen Varshavadan Venaga keladi. Uning konsertlari katta muvaffaqiyatlar bilan o'tadi. Kompozitorni birinchi

darajali iste'dod egasi sifatida qabul qilishadi va Mosheles, Kalkbrenner, Gersingari o'sha davrning eng mashhur pianinotchilari qatoriga qo'yishadi. U 1830-yil kuzida do'sti Titus Voysexovskiy bilan birgalikda ikkinchi marta Venaga jo'nab ketadi Xayrlashuv oldidan do'stlari unga polyak tuprog'i to'ldirilgan ko'zachani sovg'a qilishadi. 30 va 40-yillar Shopen ijodida eng samarali bo'ldi. U Parijga ko'chib keladi. Shopen Parijni maftun qildi, bu bir paytlar Venani Motsart, Betxovenlar egallaganiga o'xshab ketardi. Listga o'xshab u ham jahon pianinotchilarining eng yaxshisi sifatida e'tirof etilgan. Konsertlarda Shopen, asosan, o'zi yozgan asarlarni: orkestr bilan birgalikda fortepiano uchun konsert, konsert rondolari, mazurkalar, etudlar, noktyurnlarni, Motsartning «Don Juan» operasidan olingan mavzular variatsiyalarini ijro etardi.

Ayni mana shu variatsiyalar haqida mashhur nemis bastakori va tanqidchisi Robert Shuman shunday deb yozgan edi: «Bosh kiyimingizni qo'lga oling, janoblar, huzuringizda daho turibdi».

Shopenning Parijdagi hayoti baxtli kechmagan bo'lsa-da, uning ijod qilishi uchun qulay bo'ldi. Iste'dodi shu yerda kamolga yetdi. Asarlari nashri endi to'siqqa uchramas, undan dars olish esa katta sharaf, uning chalgan asarlarini eshitish esa saralangan, sanoqli odamlargagina nasib etadigan nodir baxt edi. Bastakorning so'nggi asari fa minor mazurkasi bo'lib, uni muallifning o'zi ijro etolmas, faqat qog'ozdagina aks ettirgan edi. Uning iltimosiga ko'ra, Polshadan katta opasi Ludvika keladi. Shopen opasining qo'lida jon beradi Shopenni dafn etish marosimi tantanali tarzda o'tadi.

Parijning eng mohir artistlari u yaxshi ko'rgan Motsartning Rekviyemini ijro etishadi. Uning o'z asarlari ham yangraydi, ular orasida orkestr ijrosidagi si bemol minor fortepiano sonatasidan Motam marshi ham bor edi. Do'stlari uning qabriga jonajon polyak tuprog'i solingan ko'zachani ham keltirishadi. Shopen Parijda, o'z do'sti Bellini qabri yoniga dafn etiladi. Uning yuragi esa, o'z vasiyatiga ko'ra, idishga solinib Polshaga, Varshavaga keltiriladi, u hozirgacha ham Ilohiy Xoch kostelida ehtiyotkorona saqlanib kelinmoqda.

ASARLARI RO'YXATI

Fortepiano uchun

- Mazurkalar (80 ga yaqin).
- Polonezlar (20 ga yaqin).
- Noktyurnlar (20 ga yaqin).
- Etudlar (hammasi 27 ta).
- Ekspromptlar (hammasi 4 ta).
- Valslar (hammasi 15 ta).
- Preludiyalar (hammasi 25 ta).
- 24 ta preludiyalar op. 28.
- Preludiya cis-moll op. 45.
- Skerso (hammasi 4 ta).
- Balladalar (hammasi 4 ta).
- Sonatalar (hammasi 3 ta).

Fortepiano uchun orkestr jo'rligidagi cholg'u asarlar

KONSERTLAR

— Op. 21 f-moll.

— Op. 11 e-moll.

— Op. 14-rondo a la krakovyak (1825).

— Op. 13 Polsha mavzulariga katta fantaziya (1829—1830).

— Op. 22 Katta mohirona polonez (1830—1843).

— «Don Juan» operasi mavzusiga variatsiyalar» op. 2 (1827).

Etyud (fransuzcha "etude" — o'rganish, mashq qilish) — san'atning turli sohalarida (musiqqa, tasviriy san'at, teatr, shaxmat) mahoratni oshirish yoki kelajakdagi katta asar uchun xomaki tayyorgarlik ko'rish maqsadida yaratiladigan kichik hajmli asardir.

Musiqada Etyud

Musiqada etyud — ma'lum bir ijro uslubini yoki texnik mahoratni (masalan, barmoqlar tezligi, akkordlar bilan ishlash) rivojlantirishga mo'ljallangan cholg'u asaridir.

O'quv etyudlari: Faqat texnikani rivojlantirishga xizmat qiladi (masalan, K. Cherni etyudlari).

Badiiy etyudlar: Ham yuksak texnika, ham chuqur badiiy mazmunga ega bo'lgan, konsertlarda mustaqil asar sifatida ijro etiladigan asarlar (masalan, F. Shopen, F. List, S. Raxmaninov etyudlari).

Fortepiano adabiyotida K.Cherni, I.Kramer,

M.Klementi, I.Mosheles, K.Tauzig, A.Genzelt etyudlari keng tanilgan. F.Shopen etyudlari ham pianinochilik texnikasini rivojlantirishda o'z oldiga ma'lum vazifalarni qo'yadi. Ularning bir qismi yirik texnika (oktavalar, qo'shaloq notalar, akkordlar, arpedjioli passajlar) uslublarini qo'llashni talab qiladi.

Boshqalarining maqsadi "marjon" (nozik) texnikani yoki tovushning mayinligi va kuychanligini rivojlantirishdan iborat.

Biroq bular kompozitor o'z oldiga qo'ygan vazifaning bir qismidir, xolos. F.Shopen ijodida etyudlar o'zining g'oyasi bo'yicha chuqur bo'lgan konsert pyesalariga aylandi, ular balladalar, skerso va boshqa asarlar qatoridan o'rin oldi. Shopenning yigirma to'rt etudi yuksak badiyatli asarlar bo'lib, ularda shopencha pianizmning manzaralari tasvirlangan.

Har bir etud o'z poetik obraziga, o'z faktura toifasiga va texnik usullariga ega. Shopen etudlarida texnik usullarning xilma-xil turlari: keng joylashuvdagi arpedjioli passajlar (op. 10 dagi birinchi va ikkinchi etudlar); tertsiyalar bilan tezkor etud (gis-moll), chap qo'ldagi kantilena bilan sustroq ohang («violonchelga oid», cis-moll) va boshqalar.

Shopen har bir etudga o'z musiqiy uslubini nisbatan to'la va to'g'ri talqin qilish imkonini beradigan qaysidir bir texnik usulni egallash yo'li sifatida qaraydi.

U pedal fonida kantilena usullarini, ohangdorlik bezaklarini, registrnlarning keng qamrovini, ohang sakratmalarini, qora klavishlarda chalishni ishlab chiqadi. Shopenning ayrim etudlari jahon musiqiy adabiyotidagi eng

mashhur pyesalardandir. Bunday asarlar qatoriga Polshada bo'lib o'tgan inqilobiy voqealarga bevosita aks sado sifatida yaratilgan mashhur «Inqilobiy» etud c-moll, op. 10 № 12 ham kiradi. Qahr-g'azab, norozilik va afsus — bu asarning yaratilishida ijodiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Shopen jami 27 ta etyud yozgan:

- Opus 10 (12 ta etyud) – 1829–1832-yillar.
- Opus 25 (12 ta etyud) – 1832–1836-yillar.
- Trois Nouvelles Études (3 ta yangi etyud) – 1839-yil.

Eng mashhur: "Inqilobiy etyud" (Op. 10, No. 12)

Bu asar Shopenning eng mashhur ijod namunalaridan biridir. Shiddatli intiluvchan passajlar jo'rligida da'vatli, irodali kuy sadolanadi.

Asar kelib chiqishi tarixini bilgan holda, nafrat va qayg'uni bundan-da yorqinroq va kuchliroq ifoda etilishini tasavvur qilish mushkul. Musiqani bundan boshqa tuyg'ular ham to'ldirib turadi. Bir vaqtning o'zida kurashga da'vat, Vatan 253 ozodligi va mustaqilligi uchun kurashuvchilarning mardonavorligi va jasoratining ifodalanishi eshitilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, uning hayoti va ijodini o'rganish orqali biz kompozitorning o'z vatani sog'inchi va lirik kechinmalarini qanchalik mahorat bilan musiqaga ko'chirganiga guvoh bo'lamiz.

Shopenning fortepiano etyudlari – bu pianinochilik san'atining "Alifbosi" va ayni paytda "Cho'qqisi"dir. Ular texnik mahoratni badiiy go'zallik bilan birlashtirib, XIX asr romantizm yo'nalishini yangi bosqichga olib chiqdi.

Shopen ijodi bugungi kunda ham har bir professional pianinochi uchun o'z mahoratini namoyon etishdagi eng asosiy mezon bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Б. Асафьев. Шопен. М., «Музыка», 1922.
2. Ю. Кремлев. Жорж Бизс. Краткий очерк жизни и творчества. Л., «Музыка», 1935.
3. А. Хохловкина. Жорж Визе. М., «Музгиз», 1954.
4. В. Конен. Шуберт. М., «Музыка», 1958.
5. А. Соловцов. Фредерик Шопен. М., «Музыка», 1960.